



IJTIMOY TARMOQLARIDA “OMMAVIY MADANIYATGA” QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI.

Zakirov Akramjon Ismailjanovich

ADU erkin tadqiqotchisi

Andijon viloyat hokimligi huzuridagi jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar hamda ularning faoliyatiga ko'maklashish shu'basining bosh mutaxassisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5584563>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2021

Accepted: 10th October 2021

Online: 15th October 2021

KEY WORDS

Globallashuv, “ommaiy madaniyat”, integratsiya, erkin axborot almashuvi, urf-odat, geosiyosat, axborot xuruji.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kundagi globallashuv jarayonlarida yoshlarimiz internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish, information xurujlardan qanday ximoyalanih mumkinligi ularning salbiy oqibatlari, axborot xurujlarining turlari ularga qarshi kurashish usullari keltirilgan.

Globallashuv jarayonlari kuchaygan XXI asrning dastlabki yuz yilligi insoniyat tarixiga axborot texnologiyalari asri sifatida kirib keldi. Ko'z o'ngimizda zamonaviy dunyoning geosiyosiy, geostrategik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya qiyofasida fundamental o'zgarishlar yasaydigan chuqur jarayonlar ro'y bermoqda.

Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuvi g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari tobora kengayib bermoqda.

Globallashuvning

milliy, ijtimoiy-ma'naviy qiyofaga o'tkazayotgan ta'sirini birinchi navbatda axborot fenomeni bilan izohlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda axborot globallashuvining mutlaqo domiga tushmaslikning chorasini mavjud emas va buning iloji xam yo'q. Eng yaxshi yo'l - bu ma'lum milliy davlat manfaatlarini saqlash va himoya qilish maqsadida axborot texnologiyalarini, dasturlarini imkon qadar tezlashtirish, iqtisodiy va siyosiy sohadagi islohotlarni izchil yo'lga qo'yishdir. Axborot qadim zamonlarda ham qudratli kuchga ega bo'lgan. Axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrini “Axborot asri” deb atalishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiyot va siyosat barobarida axborot ham globallashmoqda, to'g'rirog'i, axborotning globallashuvi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlariga sharoit yaratib bermoqda. Ba'zan o'zimiz yashab turgan



mintaqadagi jarayonlarga to'g'ri baho berish uchun ham tashqi axborotga, dunyoning boshqa mintaqalarida ro'y berayotgan voqealar tahliliga ehtiyoj sezamiz. Mafkuraviy va g'oyaviy taxdidlar bilan birgalikda informatsion tahdid va xurujlarning tez-tez uyushtirilayotganligi qurolning «axborot» deb atalmish yangi turi yanada qudratliroq bo'lib borayotganligidan dalolat beradi. Axborot qurolining qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofatlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki, bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z va yurt manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi. Demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Biz ushbu holatni ham bemalol axborot xuruj, tahdid urushi deb baholay olamiz.

Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Axborot urushlari ancha kamxarj – qo'shin saqlashni, qurol-yarog' sotib olishni talab qilmaydi. AQShning sobiq Prezidenti J. Karter ham: «Targ'ibotga sarflangan 1 dollar qurollanishga sarflangan 10 dollardan samaraliroq», deb bekorga ta'kidlamagan.

Bunday xurujlar jahon axborot bozorida bizning manfaatlarimizga mutlaqo zid, milliy hususiyatlarimiz, an'ana, qadriyatlarimizni mensimaydigan axborotlar shiddat bilan hayotimizga kirib kelmoqda. Bu o'z-o'zidan axborot sohasidagi hurujlardan himoyalani, binobarin, milliy xavfsizlikni ta'minlash muammosini kun tartibiga qo'yimoqda.

Axborot xurujlarining bugungi kunda quyidagi turlari mavjud:

- yolg'on axborot tarqatish;
- milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirib tashlash;
- yeti yot begona ma'naviy qadriyatlarni singdirish;
- xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish;
- kiberterrorizm kabilardir.

Bu borada "erkin axborot almashuvi" nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan MRB sobiq direktori A.F.Dallesning fikrini keltirish mumkin. "Agar menga, - deb yozadi A.F.Dalles, - tashqi siyosatning faqatgina bitta tamoyilini tanlab olish huquqi berilganda, men axborotning erkin oqimi prinsipini tanlagan bo'lur edim".¹ G'arbda "axborotning erkin oqimi" deyilganida cheksiz miqdordagi axborotni bir tarafkama uzatish, bunda axborot mazmunining hech qanday meyorlar bilan cheklanmasligiga va mazkur axborot u yetkazib berayotgan hududdagi davlat tomonidan nazorat qilinmasligi tushuniladi. Axborot turli ijtimoiy qatlamlarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda keskin farq qilishi mumkin. Bu, eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televideniye, radio), ba'zilarda eng keng (gazeta, jurnal, kitob, yangi kommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin. Axborotlarni tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon - bu internet tarmog'i ekanligi hech kimga sir emas. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan internet

¹ A. Dalles. *Iskusstvo razvedki. M.*, «Mejdunarodniye otnosheniya», 1992, S. 127.



tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Zamonaviy jamiyatga esa asosiy tarmoq hisoblangan ushbu vositadan voz kechish yoki uni umuman inkor etish mumkin emas.

Yoshlar turli reklamalar va ayniqsa bir-birlariga bevosita ta'sir o'tkazish natijasida internet tarmog'idan berilayotgan kundalik axborotga katta ehtiyoj sezmoqdalar. Kutubxona va kitobxonlikka nisbatan bir necha marta arzon va qulay bo'lgan internet tarmog'i ular uchun, axborotlar bilan ishlashning eng yaxshi makoni sanaladi. Shu axborotlar bilan birgalikda zararli mintalitetimiz uchun yot bo'lgan ma'lumotlar g'oyaviy to'qnashuvlarga sabab bo'lmoqda.

Hind xalqining farzandi Maxatma Gandi axborotlarni to'g'ri va o'rinli talqin qilinishi, ba'zi xabar yoki g'oyalar jamiyatga notinchlik inqilobiy o'zgarishlarga olib kelishi haqida fikr yuritib, - "men uyimni havosini almashtirish, toza havo kirishi uchun derazamii ochamai, lekin havo to'fonga aylanib, uyimni ag'dar- to'ntar qilib yuborishini istamayman" degan edi. Shunday ekan xayotimiz davomida axborotlarning kirib kelishini cheklay olmaymiz. Psixologlarning

o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, aholining 15-25 foizigina axborotni tanqidiy nuqtai nazardan o'zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa, olingan axborotning ta'siriga shundayligicha berilib ketadi. Bu esa axborot kommunikatsiyalarining hozirgi zamon vositalari va usullari jamiyat boshqaruvchanligini ta'minlash, insonga ma'naviy-psixologik va axloqiy ta'sir o'tkazish uchun keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Xuddi shunday axborot xavfsizligiga qarshi

yurtimizda Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 15 avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2017 yil 24 avgustda maqullangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish" to'g'risidagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonuning 5- moddasida quyidagilar nazarda tutilgan;

-bolalar ongiga g'ayriqonuniy axborot-ruhiy tasir ko'rsatilishining, ularga hiyla ishlatishning, bolalarni g'ayri ijtimoiy xarakterlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu soxadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish;

-fuqorolar o'zini-o'zi boshqarish o'rganlarining, nodavlat-notijorat tashkilotlarining, fuqorolik jamiyati boshqa institutlarining, jismoniy va yuridik shaxslarning bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo'llab quvvatlash;

-bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash mezonlari, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlashning dasturiy-apparat va texnika vositalarini joriy etish kabi asosiy yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari yoshlarimizni "ommaviy madaniyat" tahdidlaridan asrash uchun yuksak insoniylik va odobga asoslangan milliy mafkuraga tayanishimiz muhim ahamiyatga ega. Milliy mafkuramizning bizga meros bo'lib qolgan urf-odatlarimizga, go'zal an'analarimiz va diniy qadriyatlarimizga suyanishimiz, yoshlarga ta'lim berayotgan har bir pedagog, o'z farzandining ertangi taqdiriga befarq bo'lmagan har bir ota-ona jiddiy e'tibor bilan qarashi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining maqullangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish" to'g'risidagi qonuni. T.: 2017
2. Abbasxo'jayev O. Umarova N.Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. T.:Akademiya, 2007
3. Do'stmuhammad Xurshid. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari.- Toshkent: O'zbekiston, 2005.
4. Qaxxorova SH. Global ma'naviyat- globallashuvning g'oyaviy asosi. T.:Tafakkur, 2009
5. <http://google.uz>